



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024-yil 30-iyul

211-5-0-Q/24

Navoiy viloyati hokimligi

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagи “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi PQ-270-son qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida**

Tariximizning noma'lum sahifalarini tiklash va ilmiy nuqtayi nazardan chuqur o‘rganish, inson, uning huquq, va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e’tirof etish, shu asosda yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlodning Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg‘usini, fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish, ularni bugungi tinch, erkin va ozod hayotning qadriga yetish ruhida tarbiyalash maqsadida

### QAROR QILAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagи “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi PQ-270-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan quyidagilar:

Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi, Fanlar akademiyasi, Yozuvchilar uyushmasi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining har yili oktabr oyining birinchi haftasini mamlakatimizda Siyosiy qatag‘on qurbonlarini yod etish haftaligi sifatida nishonlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullanganligi;

Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimizning hayoti va faoliyatini o‘rganish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Viloyatda siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimizning hayoti va faoliyatini o‘rganish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Viloyat hokimi o‘rinbosari (Mirzayev), viloyat kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (Xayrullayev), viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi (Baxromov),

Nuroniy jamg‘armasi viloyat bo‘linmasi (Nabihev), O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi Navoiy viloyati hududiy boshqarmasi (Aliyev), tuman (shahar) hokimliklari:

qatag‘on qurbanlari va jadidchilik harakati vakillari bo‘lgan shaxslar tug‘ilib o‘sgan, yashagan xonadonlarni aniqlasin va ularda esdalik lavhalarini o‘rnatsin;

mahallalarda va umumta’lim maktablarida tegishli tarzda “Qatag‘on qurbanlari xotirasi burchaklari”ni, stendlar va boshqa ko‘rgazmali vositalarni tashkil etsin.

mazkur bandda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda mahalliy budgetlar mablag‘lari hisobidan amalga oshirish choralarini ko‘rsin.

4. Viloyat madaniy meros boshqarmasi (Raxmatov) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda birgalikda shaxsiy va oilaviy arxivlarda saqlab kelinayotgan qatag‘on qurbanlari faoliyatiga bevosita daxldor bo‘lgan qo‘lyozma, kitob, surat va buyum shaklidagi tarixiy-madaniy ashyolarning davlat muzeylari fondlariga qabul qilib olinishini tashkil etsin.

5. Qatag‘on qurbanlari xotirasi davlat muzeyi viloyat bo‘limi (Qurbanov) viloyat raqamli texnologiyalar boshqarmasi (Bo‘ronov), viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Mamarajabov) Navoiy shahar hokimligi bilan birgalikda muzey fondini muntazam boyitib borish, unga yangi ekspozitsiya va ko‘rgazmalar tashkil etish hamda bu borada zamonaviy raqamli texnologiyalar va multimedia vositalaridan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tegishli ishlarni amalga oshirsin.

6. Viloyat hokimligi axborot xizmati (Rauboyeva), viloyat teleradiokompaniyasi (Sultonov) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori mazmun-mohiyatini fuqarolarga yetkazish maqsadida ommaviy axborot vositalarida yoritish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qaror bilan belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta’minlanishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Viloyat hokimi**



**N.Tursunov**

Navoiy viloyat hokimining  
2024-yil 30-iyuldagি  
211-5-0-Q/24-son qaroriga  
1-ilova

**Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimizning hayoti va faoliyatini o‘rganish hamda ularning xotirasini  
abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar**

**DASTURI**

T/r	Chora-tadbirlar	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbai	Mas’ul ijrochilar
<b>1. Tashkiliy-amaliy tadbirlar</b>				
1.	Qatag‘on qurbonlari va jadidlarning tuman va shaharlar kesimida nommnom aniqlash, ularning hayoti va faoliyati, tarixiy xizmatlari haqidagi ma’lumotlarni, arxiv va muzeylarda saqlanayotgan hujjatlarni to‘plash va o‘rganish bo‘yicha olimlar va mutaxassislardan iborat tarkibda hududiy ishchi guruhlar tashkil etish.	2024-yil avgust oyidan boshlab doimiy ravishda		Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, viloyat oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi <b>(To‘xtayev)</b> , Oliy sud, Mudofaa boshqarmasi <b>(Muyidinov)</b> , Ichki ishlar boshqarmasi <b>(Tasbayev)</b> , Davlat xavfsizlik xizmati <b>(Urunov)</b> , "Uzarxiv" <b>(Bekova)</b> , manfaatdor korxona va idoralar,
2.	Qatag‘on qurbonlari va jadidlar yashab o‘tgan xonadonlarga tashrif buyurish hamda qatag‘on qurbonlari va jadidlarning avlodlari va yaqinlariga zaruratga ko‘ra moddiy va ma’naviy	Har yili may, avgust, oktabr oylarida	"Nuroniy" jamg‘armasi va "Mahalla" xayriya jamoat fondi	Viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi <b>(Baxromov)</b> , "Nuroniy" jamgarmasi, "Mahalla" xayriya jamoat fondi

	ko‘mak berish choralarini ko‘rish.		mablag‘lari, ijrochilar mablag‘lari	<b>tuman va shaharlar hokimliklari,</b>
3.	Qatag‘on qurbanlari va jadidlarning oila a’zolari, farzand va nabiralari hamda boshqa yaqinlarini moddiy va ma’naviy rag‘batlanirish, davlat mukofotlariga tavsiya etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.	2025-yil mart	Tuman (shahar) hokimliklarning budjetdan tashqari mablag‘lari, "Mahalla" xayriya jamoat fondi va "Nuroniy" jamg‘armasi mablag‘lari, homiylik xayriyalari	Viloyat kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi <b>(Xayrullayev)</b> , viloyat mahallalar uyushmasi <b>(Aliyev)</b> , viloyat Ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi <b>(Muqimov)</b> , <b>tuman va shaharlar hokimliklari,</b>
4.	Ta’lim tashkilotlarida “Mustaqillik darslari” doirasida qatag‘on qurbanlari va jadidchilik harakati namoyandalariga bag‘ishlangan o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish.	2024/2025 - o‘quv yilidan boshlab har yili	Tashkilotchilar mablag‘lari	Viloyat oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi <b>(To‘xtayev)</b> , viloyat maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi <b>(Hayitova)</b> , viloyat Fanlar akademiyasi <b>(Mirzayev)</b> , viloyat yozuvchilar uyushmasi <b>(Sadriddinov)</b> , viloyat Ma’naviyat va ma’rifat

				<b>bo‘limi (Muqimov), tuman va shaharlar hokimliklari,</b>
5.	Qatag‘on qurbanlari xotirasi viloyat muzeyi va uning hududiy bo‘limlari fondlarini muntazam boyitib borish, yangi ekspozitsiya va ko‘rgazmalar tashkil etish hamda bu borada zamonaviy axborot texnologiyalari, multimedia vositalaridan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish.	2024-2026-yillar	Davlat budgeti mablag‘lari, tuzilmasida Qatag‘on qurbanlari viloyat muzeyi bo‘lgan oliv ta’lim muassasalari mablag‘lari	Viloyat oliv ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi ( <b>To‘xtayev</b> ) <b>tuman va shaharlar hokimliklari,</b>
6.	"Qatag‘on qurbanlari" xotira kitoblarini nashr etish hamda joylardagi mahallalarga yetkazilishini ta’minlash.	2025-yildan boshlab reja asosida	Mahalliy budget mablag‘lari	Qatag‘on qurbanlari viloyat muzeyi, viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi ( <b>Mamarajabov</b> ), viloyat adliya boshqarmasi ( <b>Abdullayev</b> ), viloyat iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ( <b>Boboqulov</b> ), <b>tuman va shaharlar hokimliklari,</b>

## II. Ilmiy-tadqiqot ishlari

7.	<p>Sobiq mustabid tuzum davrida zulm va zo'ravonlik qurboni bo'lgan vatandoshlarimiz va ularning avlodlari yashagan va yashayotgan xonadonlarga yodgorlik lavhalari o'rnatish, mahalla idoralari binolarida Respublika komissiyasi tomonidan belgilanadigan yagona namuna va tegishli tartibda shakllantiriladigan ro'yxat asosida "Qatag'on qurbonlari xotirasi burchaklari" va "Mahalla xotira kitoblari"ni tashkil etish ishlarini amalga oshirish.</p>	2024-2026-yillar	<p>Davlat budgeti mablag'lari, mahalliy budgetning qo'shimcha mablag'lari</p>	<p><b>tuman va shaharlar hokimliklari</b></p>
8.	<p>Keyingi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarda olib borilayotgan tub o'zgarish va islohotlar, avvalambor, mahalladan boshlanayotganini inobatga olib, boy tariximiz va madaniyatimiz, buyuk allomalarimiz merosi, vatanparvar ajdodlarimizning ma'naviy jasoratini mahallalarda keng targ'ib etish yuzasidan tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish.</p>	Alohida reja asosida	<p>Ijrochilarning mablag'lari</p>	<p>Viloyat mahallalar uyushmasi (<b>Aliyev</b>), viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (<b>Xayrullayev</b>), <b>tuman va shaharlar hokimliklari</b></p>
9.	<p>Hududlarda muayyan mahalla, qishloq, va ovulda tug'ilib o'sgan va ommaviy qatag'onlar qurboni bo'lgan shaxslar to'g'risida "Vatanimiz mustaqilligi va xalqimiz ozodligi yo'lida jonini fido</p>	Alohida reja asosida	<p>Ijrochilarning mablag'lari</p>	<p>Viloyat mahallalar uyushmasi (<b>Aliyev</b>), viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi</p>

	qilgan ajdodlarimizning xotirasi barhayot!” shiori ostida planshetlar va boshqa ko‘rgazmali vositalar o‘rnatish.			<b>(Xayrullayev), viloyat Ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi (Muqimov) tuman va shaharlar hokimliklari</b>
10.	Qatag‘on qurbanlari va jadidchilik harakati bilan bog‘liq, obyektlarni sayyoqlik yo‘nalishlariga kiritish, bu mavzuda esdalik sovg‘alari ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, mahalliy tadbirkor va hunarmandlar uchun bunday mahsulotlarni tayyorlash va realizatsiya qilish bo‘yicha marketing darslarini tashkil etish.	Alohiba reja asosida	Ijrochilarning mablag‘lari	Viloyat turizm boshqarmasi (Xo‘jayev), viloyat savdo-sanoat palatasi (Amanbayeva), <b>tuman va shaharlar hokimliklari</b>

### III. Manaviy-marifiy tadbirla

11.	“Tarixiy xotira, ma’naviy va ruhiy tarbiya - Yangi O‘zbekiston poydevori” degan shior ostida barcha tuman va shaharlarda, mahallalarda, tashkilot va muassasalarda ma’naviy-ma’rifiy, targ‘ibot-tushuntirish tadbirlari hamda davra suhbatlari, ta’lim muassasalari va mahallalarda uch avlod uchrashuvlari, xotira va qadrlash mavzusida tadbirlar tashkil etish va o‘tkazish	2024- yildan bosholab har yili avgust va oktabr oylarida	Tashkilotchilar mablag‘lari	Viloyat mahallalar uyushmasi ( <b>Aliyev</b> ), viloyat kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi <b>(Xayrullayev)</b> , viloyat Ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi <b>(Muqimov)</b> , viloyat oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi <b>(To‘xtayev)</b> , viloyat
-----	--	--	--------------------------------	---

				<p>yozuvchilar uyushmasi <b>(Sadriddinov),</b> viloyat Fanlar akademiyasi <b>(Mirzayev),</b> <b>tuman va shaharlar</b> <b>hokimliklari</b></p>
--	--	--	--	--